

“O‘ZBEK TILINING HUQUQIY MAQOMI OSHIB BORMOQDA”**Avlaqulov Sobir Shodiqul o‘g‘li****Toshkent viloyati adliya boshqarmasi****Qibray tuman adliya bo‘limi****Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi boshlig‘i**

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilining huquqiy maqomini oshirish borasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan qonuniy asoslar, islohotlar va choratadbirlar tahlil qilinadi. Jumladan, 1995-yilda “Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi, 2019-yil Prezident farmoni bilan “O‘zbek tili bayrami kuni”ning joriy etilishi, rahbar kadrlar uchun davlat tilini bilish darajasini aniqlash tizimi, shuningdek, lotin yozuviga to‘liq o‘tish borasida olib borilayotgan ishlarga e‘tibor qaratiladi. Maqolada o‘zbek tilining davlat tili sifatida ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy hayotdagi o‘rni va nufuzini mustahkamlashga qaratilgan harakatlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, davlat tili, huquqiy maqom, til siyosati, qonunchilik, lotin yozuvi, malaka oshirish, til bayrami, til sertifikati, normativ-huquqiy hujjatlar.

Аннотация в данной статье анализируются правовые основы, реформы и мероприятия, направленные на повышение правового статуса узбекского языка в годы независимости. В частности, рассматриваются Закон «О государственном языке» 1989 года, указ Президента от 2019 года о введении Дня узбекского языка, система оценки знания государственного языка для руководящих кадров, а также переход на латинскую графику. В статье раскрывается роль и значение узбекского языка как государственного языка в социальной, правовой и духовной жизни общества.

Ключевые слова: узбекский язык, государственный язык, правовой статус, языковая политика, законодательство, латинская графика, повышение квалификации, языковой праздник, языковой сертификат, нормативно-правовые документы.

Kirish

Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Har bir sohaning rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun alohida e'tibor va tegishli chora tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Jumladan o'zbek tilining rivojlanish hamda huquqiy maqomini oshirish borasida ko'pdan ko'p choratadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbek tiliga O'zbekiston Respublikasi davlat tili maqomi berilganiga ham 30 yildan oshdi, ya'ni 1989-yil 21-oktyabr «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilinib, o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hamda bu qonun bilan va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilishi xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lgan ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'lishini anglatadi.

So'ngi yillarda o'zbek tilining huquqiy maqomini oshirish va mustahkamlash borasida narmativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 21-oktabr sanasini "O'zbek tili bayrami kuni" sifatida nishonlash belgilandi.

Ushbu Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatining tarkibiy bo'linmasi hisoblangan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad Davlat tilini rivojlantirish, davlat tilining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash, o'zbek tilining yozma matni me'yor va qoidalarini ishlab chiqishdan iborat.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-fevralda “Rahbar kadrlar va mas’ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash va ularga davlat tilini bilish bo’yicha daraja sertifikatini berish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori tasdiqlandi.

Qaror bilan 2021-yil 1-apreldan boshlab o’zbek tili va adabiyoti bo’yicha bilimni baholashning milliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish hamda mas’ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish darajasini aniqlash va sertifikat berish tizimi joriy etildi. Bu test tizimi davlat tilida ish yuritish sohasining yuksak rivojiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Jumladan, talabgorlar test sinovidan o’ta olmasa, Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o’qitish va malaka oshirish markazida davlat tili bo’yicha malaka oshiradilar va qayta test sinovlarida ishtirok etadilar.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 10.02.2021-yildagi “Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to’liq o’tishni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi 61-sonli qarori qabul qilinishi ham davlat tiliga katta e’tibor qaratilayotganining yaqqol dalilidir. Ushbu qaror bilan Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to’liq o’tishni ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish – belgilab berildi va 2023-yil 1-yanvardan boshlab Davlat organlari va boshqa tashkilotlarning lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosida ish yuritishga to’liq o’tishini ta’minlash va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, barcha tashkilotlarda ish yuritish hujjatlari va boshqa hujjatlarni lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosida ishlab chiqish, qabul qilish va e’lon qilish amaliyotini to’liq joriy qilish belgilandi.

Bundan tashqari, O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ham o’zbek tilining huquqiy maqomini mustahkamlash borasida choratadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, 2021-yil 1-noyabrda Adliya vazirining 294-sonli “Adliya organlari va muassasalarida ish yuritishni lotin alifbosiga to’liq o’tkazish to’g’risida” buyrug’i chiqdi. Unga ko’ra, 2021-yilning 10-noyabrdan boshlab markaziy

apparat tarkibiy tuzilmalari, adliya organlari va muassasalarida ish yuritish, ta'lim jarayonlari to'liq lotin alifbosida amalga oshirilishi belgilandi.

Shuningdek, 2021-yilning 1-dekabrga qadar kadrlar boshqarmasi adliya organlari va muassasalarida lotin alifbosida matn yozish va ish yuritishga qiynaladigan xodimlarni aniqlasin va zarurat tug'ilganda ularni Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida o'qitish choralari ko'rishi belgilandi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, Davlat tili to'g'risidagi qonunni buzish va unga hurmatsizlik qiladigan shaklar ham jamiyatda uchray turadi. Bunday shaxslarga O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi bilan javobgarlik belgilangan bo'lib, ushbu kodeksining 42-moddasi bilan Davlat tili to'g'risidagi qonunchilikni buzish: Fuqarolarning tarbiya va ta'lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to'sqinlik qilish va cheklash, davlat tilini, shuningdek O'zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlar va elatlarning tillarini mensimaslik — bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Davlat tilini huquqiy maqomini mustahkamlash borasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlardan ko'zlangan maqsad – o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini yuksaltirishda yuqori natijalarga erishish, o'zbek tilini siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa sohalarda qo'llash doirasi kengaytirib, undan davlat tili sifatida to'liq va to'g'ri foydalanishni ta'minlashdan iborat. Bundan tashqari, bu orqali davlat organlari va tashkilotlari rahbar xodimlariga davlat tilini talab darajasida bilish va unga hurmat bilan munosabatda bo'lish majburiyati yuklanadi, barcha davlat organlari va tashkilotlarida davlat tilida ish yuritish salohiyatiga ega bo'lgan malakali kadrlar faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yildagi “Davlat tili haqida”gi Qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni;
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi 61-son Qarori – “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek **alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida**”;
5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2021-yil 1-noyabrdagi 294-sonli buyrug‘i – “Adliya organlari va muassasalarida ish yuritishni lotin alifbosiga to‘liq o‘tkazish to‘g‘risida”.
6. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi